

SO‘Z TARTIBI (TASDIQ va SO‘ROQ GAPLAR) WORD ORDER (POSITIVE and NEGATIVE)

Ingliz tilida odatdagi so‘z tartibi egadan keyin fe‘l, undan keyin ravishlarning kelishidir. *Teskari* so‘z tartibi fe‘lning egadan oldin kelishidir. Inglizcha so‘zlarning grammatik ma‘nosi o‘zgarganda odatda ularning shakli o‘zgarmaydi, shu boisdan ingliz tili uchun so‘z tartibi juda muhim. Ingliz tilida so‘z tartibi so‘zlarni bog‘lovchi asosiy grammatik vositalardan biri hisoblanadi. Shu sababdan ham ingliz tilida so‘z tartibi o‘zbek tilidagiga qaraganda ancha qat’iy va o‘zgarmas. Bu degani shuki, gap tarkibidagi har bir so‘z o‘z joylashuv o‘rniga ega.

Tasdiq gaplarda odatda **egadan** keyin **fe‘l**, fe‘ldan keyin **to‘ldiruvchi** keladi. Gapda ikkita **hol** kelganda (masalan payt va o‘rin hollari) ularning biri to‘ldiruvchidan keyin, ikkinchisi gapning boshida kelishi mumkin.

<i>Ega</i>	<i>kesi</i> <i>m</i>	<i>pred-</i> <i>log-</i> <i>siz</i>	<i>to‘ldiruvchi</i> <i>vositasiz</i>	<i>vositali</i> <i>va</i> <i>predlogli</i>	<i>harakat tarzi</i>	<i>hol</i> <i>o‘rin</i>	<i>payt</i>
She teaches	me		English			at home	every
I sent	Ann		a letter.				week.
I sent			a letter	to her.			
Ann got			a letter	from			
We read			this	him.	with great pleasure.		
			book				

Quyidagi hollarda ega kesimdan keyin kelishi mumkin:

1. **There is (are)** bilan boshlanadigan gaplarda:

There is a book on the table.
Stolning ustida kitob bor.

2. Ko'chirma gaplarda:

"I'm tired", said she.

"Men charchadim", - dedi u.

3. Here, never, neither, no, no sooner ... (than), hardly ... (when) only ravishlari bilan.

Never in my life have I seen such a film.

Hayotimda hech qachon bunday filmni ko'rmaganman.

Only then did I realize it.

Faqat shundan keyingina men uni amalga oshirdim.

So'roq gaplarda so'z tartibi bir muncha o'zgaradi. Umumiy so'roq gaplar yordamchi yoki modal fe'llar bilan boshlanadi. (**do, did, am, is, are, was, were, have, will, shall, can, must** va boshqalar)

"Do you speak English?" – "Yes, I do."

"Inglizcha gapirasizmi?" – "Ha, gapiraman."

"Did he study History at University?" – "Yes, he did."

"U universitetda tarixni o'qiganmi?" – "Ha, o'qigan."

"Can you retell the text?" – "No, I can't."

"Matnni yoddan aytib bera olasizmi?" – "Yo'q, aytib bera olmayman."

Maxsus so'roq gaplar so'roq so'zlari bilan boshlanadi.

What do you do? Nima qilasiz?	<i>kesimga</i>
Whom do you meet at the club? Klubda kimni uchratasiz? What do you like? Nimani yaxshi ko'rasiz?	<i>to'ldiruvchiga</i>
Which book do you like? Qaysi kitobni yaxshi ko'rasiz? How many pencils do you need? Sizga nechta qalam kerak?	<i>aniqlovchiga</i>
Where do you go every day? Har kuni qayerga borasiz?	<i>o'rin holiga</i>
When (what time) do you get up? Qachon (soat nechada) turasiz?	<i>payt holiga</i>

How well does he speak English? U qay darajada inglizcha gapiradi?	<i>harakat tarziga</i>
Why does he read badly? Nima uchun u yomon o'qiydi?	<i>sabab holiga</i>

Egaga aloqador savollar **who? (kim?) what? (nima?)** so'roq so'zlari bilan boshlanadi va tasdiq gap tartibida davom etadi.

Who teaches you English?
Kim sizga ingliz tilini o'qitadi?
What helps you in your work?
Sizga ishingizda nima yordam beradi?

Alternativ (tanlov) so'roq gaplardagi so'zlar tartibi umumiy so'roq gaplardagi kabidir.

Do you know English or German?
Siz ingliz tilini bilasizmi yoki nemis tilinimi?

Ajratilgan so'roq gaplar tasdiq gaplar kabi boshlanadi. So'roq gapning ikkinchi qismi yordamchi fe'lining inkor shakli va eganing olmoshlashgan shaklidan iborat bo'ladi va o'zbek tiliga "shunday emasmi" tarzida tarjima qilinadi.

You study English, don't you?
Siz ingliz tilini o'rganasiz, shunday emasmi?
You are a student, aren't you?
Siz talabasiz, shunday emasmi?